



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqib boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 10-aprel, № 70 (9241)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TARIXGA EHTIROM VA KELAJAKKA ISHONCH IFODASI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 9-aprel kuni Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligi munosabati bilan poytaxtimizdagi Amir Temur xiyoboniga tashrif buyurdi va Temuriylar tarixi Davlat muzeyida amalga oshirilgan rekonstruksiya ishlari bilan tanishdi.



Prezidentimiz xiyobonda mashhur davlat arbobi, yengilmas sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur haykali poyiga gulchambar qo'ydi.

Bugun yurtimizda katta shodiyona – Amir Temur tavalludining 690-yilligi keng nishonlanmoqda. Bu sana nafaqat buyuk ajdodimizni yod etish, balki o'zlikni anglash, o'tmishdan kuch olib, kelajakka ishonch bilan intilish ramziga aylandi.

Zotan, Amir Temur – tarix sahnasida tasodifan paydo bo'lgan shaxs emas, balki og'ir va murakkab bir davrda xalq taqdiri uchun mas'uliyatni zimmasiga olgan, parokandalikni bartaraf qilib, markazlashgan qudratli davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi. U o'z saltanatida joriy qilgan adolat tamoyillari va mukammal boshqaruv tizimi bugun ham jahon siyosiy tafakkurida alohida o'rin tutadi.

Sohibqironning davlat boshqaruvi o'z tuzumlarini, adolat, haqiqatparvarlik, insonparvarlik tamoyillari asrlar oshsada, o'z qiymatini yo'qotmagan. Jumladan, ulug' ajdodimiz o'z tuzuklarida "...amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa yo biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech nima olmasinlar, ikkinchi yili riyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'sinlar", deya amr etadi. Bu mamlakatda bunyodkorlik, yaratuvchanlik intilishlari har tomonlama qo'llab-quvvatlangani, har ishda adolat – oliy mezonga aylantirilganini namoyon qiladi. Sohibqiron tuzuklaridagi "Riyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim", degan so'zlar buyuk saltanatda inson va uning sha'nu shavkati oliy

qadriyat sifatida yuksak baholanganidan dalolat beradi.

Bugun Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, inson qadri ulug'lash, adolatli jamiyat barpo etishga qaratilgan sa'y-harakatlar aynan ana shu buyuk g'oyalar bilan hamohangdir.

Yurtimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari har tomonlama rag'batlantirilayotgani, qulay ishbilarmolik muhiti yaratilib, tadbirkorlarga keng imtiyozlar berilayotgani, mamlakatimiz ulkan qurilish-bunyodkorlik maydoniga aylantirilgani buyuk ajdodlarimizga xos fazilatlar avlodlar fitratida bugun ham bardavom ekanidan nishona. Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, ilm-ma'rifatni rivojlantirish, dunyo bilan hamkorlikni

kengaytirish kabi ustuvor yo'nalishlar ham Sohibqironning hayotbaxsh g'oyalariga g'oyat mutanosibdir.

Buyuk temuriylar davrida yuzaga kelgan Renessans – ilm-fan, madaniyat va san'at rivojining yuksak cho'qqilarga chiqqani bugun ham qalblarimizda faxr-iftixor uyg'otib, xalqimizni Yangi Uyg'onish poydevorini yaratishga ruhlantirmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda Amir Temur va buyuk temuriylar merosini o'rganish hamda targ'ib etish mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Jumladan, davlatimiz rahbarining Sohibqiron tavalludining 690-yilligi munosabati bilan qabul qilgan qarori asosida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni o'yingin "Amir Temur oyligi" sifatida nishonlanishi bu yo'nalishdagi ishlarni tizimli va izchil ravishda davom ettirishga xizmat qilayotir. Ayni kunlarda poytaxtimiz tarix va

tafakkur chorrahasiga aylangan. Bu yerda buyuk sarkarda Amir Temur va temuriylar davrida yuzaga kelgan ulkan yuksalish – Ikkinchi Renessansga bag'ishlangan nufuzli xalqaro konferensiya bo'lib o'tmoqda. Mazkur anjuman shunchaki ilmiy muloqot maydoni emas, balki o'tmish daholari ruhi bilan zamonaviy fikrlar uchrashgan, tarix va kelajakni bog'lovchi ma'naviy ko'prikdir. Konferensiya mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ezu ishlar – milliy merosni o'rganish, uni asrab-avaylash va jahon miqyosida targ'ib etish borasidagi sa'y-harakatlar izchil va tizimli davom etayotganining yorqin tasdiqi.

Anjumanda yurtimiz olimlari bilan bir qatorda, dunyoning turli burchaklaridan nufuzli tarixchilar, sho'ir va adiblar, madaniyat hamda jamoat arboblari qatnashmoqda. Turli tillar, qarashlar va

maktablar vakillarini birlashtirgan ushbu ilmiy muloqot maydoni buyuk temuriylar merosining umuminsoniy ahamiyatga ega ekanini yana bir bor namoyon etayotir. Bu kabi anjumanlar nafaqat tarixni o'rganish, balki uni qayta kashf qilish, zamonaviy talqinlarda anglash va kelajak avlod ongiga chuqur singdirishga xizmat qiladi. Zero, buyuk merosga ega millat – o'z istiqbolini ham buyuk maqsadlar bilan bog'laydi.

Qaror ijrosi doirasida mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilayotgan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, madaniy loyihalar – bularning barchasi bir maqsadga, ya'ni buyuk merosni chuqur anglash va uning ruhini zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilaypti.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

ELEKTRON TIJORAT YANADA RIVOJLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev elektron tijoratni rivojlantirish va bond omborlar faoliyatini yo'lga qo'yishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

So'nggi sakkiz yilda mamlakatimizda elektron tijorat hajmi 20 barobar o'sib, 1,3 milliard dollarga yetdi. Raqamli platformalar soni 120 tadan ziyodni tashkil etmoqda. O'zini o'zi band qilish tartibining kengaytirilgani, litsenziyalash va soliqqa tortishning soddalashtirilgani hisobida sohada 750 mingta yuqori daromadli ish o'rni yaratilgan, byudjetga esa har yili 200 milliard so'm qo'shimcha soliq tushumlari ta'minlanmoqda.

Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko'pligi ta'kidlandi. Xususan, O'zbekistonda elektron tijoratning chakana savdodagi ulushi 4-4,6 foizni tashkil etib, jahondagi o'rtacha 22 foizlik ko'rsatkichdan 5 barobar kam ekanini ko'rsatib o'tildi. Mamlakatimizda ushbu ulushni 9 – 11

foizga yetkazish uchun yetarli salohiyat mavjud.

Taqdimotda elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirishda import tovarlarini bojxona to'lovlari va soliqlarini kechiktirilgan tartibda to'lash sharti bilan bojxona nazorati ostida saqlashga mo'ljallangan maxsus ombor – bond omborlar tashkil etish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'kidlanganidek, tovar uchun boj to'lovlari uni sotish paytida amalga oshirish tizimini joriy etish orqali kamida 500 million dollar investitsiya jalb qilish uchun sharoit yaratish mumkin. Bunday amaliyot Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Birlashgan Arab Amirliklari, Buyuk Britaniya, Germaniya va Singapur kabi mamlakatlarda keng qo'llanilayotgani qayd etildi.

(Davomi 2-betda).

SO'X TUMANI AHOLI VA TADBIRKORLAR UCHUN KENG IMKONIYATLAR MASKANIGA AYLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Farg'ona viloyatining So'x tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Ta'kidlanganidek, avvallari So'x yetib borish qiyin, transport va logistika imkoniyatlari cheklangan, iqtisodiy aloqalari zaif hududlardan biri edi. So'nggi yillarda mintaqaviy hamkorlik va qat'iy siyosiy iroda tufayli bu hududni kompleks rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratildi. Yo'llar ochildi, chegaradan o'tish tartiblari yengillashtirildi, tadbirkorlik uchun sharoitlar yaxshilandi, zamonaviy bog'cha, maktab, poliklinika va uy-joylar barpo etildi.

Bugungi kunda So'xdagi 25 ta mahallada 88,6 ming aholi yashaydi. Hududda 29 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 33 ta maktab, 2 ta o'rta maxsus ta'lim muassasasi, 14 ta sog'liqni saqlash muassasasi va 2 ta madaniyat obyekti faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan yilning o'zida 13 ming 921 ta ish o'rni yaratildi, 1 ming 667 ta oila kambag'allikdan chiqarildi.

Umuman, So'xdagi o'zgarishlar shunchaki

(Davomi 2-betda).

“AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TAMADDUNINING JAHON TARIXI VA MADANIYATIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Avvalo, buyuk davlat arbobi, yengilmas sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur va temuriylar tarixi hamda merosini o'rganish va targ'ib etishdek muhim ishga munosib hissa qo'shib kelayotgan siz, azizlarni bugungi xalqaro ilmiy konferensiyaning ochilishi bilan chin qalbidan samimiy muborakkob etaman.

Ushbu anjumanda dunyoning turli mamlakatlardan tashrif buyurgan taniqli olimlar – professor va akademiklar, nufuzli universitetlar hamda ilmiy markazlarning namoyandalari, ijodkor ziyolilar, mashhur muzey va kutubxonalarining yetakchi xodimlari, ko'plab ommaviy axborot vositalarining vakillari ishtirok etayotgani xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatiga jahon miqyosida qiziqish hamda e'tibor tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Konferensiya Amir Temur tavalludining 690-yilligi yurtimizda keng nishonlanayotgan kunlarda O'zbekistonning uch ming yillik betakror ilmiy-madaniy meros durdonalarini o'zida mujassam etgan Islom sivilizatsiyasi markazida bo'lib o'tayotgani, ayniqsa, diqqatga sazovor.

Mazkur ilmiy forum o'lkamiz tarixidagi ulug'vor va yorqin bosqichni tashkil etadigan Ikkinchi Uyg'onish davri – temuriylar Renessansi mohiyatini chuqur tahlil qilish, qizg'in muhokamalar o'tkazish, yangi loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Aziz do'stlar! O'lis XIV asrda, g'oyat murakkab bir zamonda hozirgi O'zbekiston hududida milliy davlatchilikni qayta tiklab, Vatani ozodligi, yurt tinchligi va obodligi yo'lida jasorat ko'rsatgan buyuk ajdodimiz Amir Temur asos solgan qudratli saltanat jahon sivilizatsiyasi tarixida qanday o'chmas iz qoldirgani sizlarga yaxshi ma'lum.

Bu haqda gapirganda, dunyodagi o'nlab davlatlar hududida Amir Temur va temuriylar davriga oid me'moriy obidalar hozirga qadar saqlanib kelayotgani, turli mintaqada va mamlakatlarda bu ulug' shaxs hamda uning sulolasiga bag'ishlab ko'plab badiiy, ilmiy va tasviriy asarlar yaratilgani ta'kidlash lozim.

Ma'lumki, Amir Temur ota yurti Shahrisabzda o'zi bunyod ettirgan go'zal me'moriy obida – Oqsaroy peshtoqiga "Adolat – davlatning asosi va hukmdorlar shiordir", degan so'zlarni yozdirgan edi. Bu hikmatli so'zlar bugungi kunimiz uchun ham muhim va dolzarb

ahamiyatga ega. Chunki tinchlik va adolat hukm surgan joydagina ilm-ma'rifat, san'at, adabiyot va madaniyat taraqqiy topadi.

Shu ma'noda, temuriylar Renessansi nafaqat Turon o'lkasi, balki butun Sharq olamining ilm-fani va madaniy ravnaqiga kuchli ta'sir ko'rsatib, yangi ma'naviy yuksalish davrini boshlab bergani bejiz emas.

Ushbu sulolaning mashhur namoyandalari bo'lgan Mirzo Ulug'bek, Buisunqur Mirzo, Ibrohim Sulton, Sulton Husayn Mirzo, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo va boburiylarning ilmiy kashfiyotlari, yetuk badiiy asarlari ana shu noyob madaniy fenomen mahsuli sifatida vujudga kelganini jahon olimlari keng e'tirof etadilar.

Yangi O'zbekistonda Amir Temur va temuriylar merosining umumbashariy sivilizatsiya tarixidagi o'rni hamda ahamiyatini o'rganish, uni yurtimiz va chet ellarda keng ommalashtirish, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Amir Temurning 690-yilligi munosabati bilan alohida qaror qabul qilindi. Ushbu hujjatga binoan har yilning aprel oyi mamlakatimizda Amir

Temur oyligi deb e'lon qilinishi, mahalliy va xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy konferensiyalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilishi belgilab qo'yildi.

Bugungi anjuman ham ana shu yo'ldagi yana bir amaliy qadam bo'lib, biz O'zbekistonning haqiqiy do'stlari bo'lgan sizlar kabi zahmatkash olim va tadqiqotchilar bilan temuriylar Renessansini, umuman, boy merosimizni chuqur o'rganish, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-ma'naviy islohotlar bilan jahon jamoatchiligini yanada keng tanishtirish borasidagi hamkorlikni izchil davom ettiramiz.

Anjuman davomida sizlar xalqimiz dahosi bilan yaratilgan yurtimizdagi tarixiy-me'moriy obidalar, madaniy yodgorliklar, nodir qo'lyozma va kitob fondlari bilan yaqindan tanishib, ularni tadqiq etish, asrash va targ'ib etish bo'yicha qimmatli taklif hamda tavsiyalaringizni bildirasiz deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, barchangizga shihat-salomatik, sharafli faoliyatingizda yangi yutuqlar, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyat tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

JAHON SIVILIZATSIYASIGA ULKAN HISSA QO'SHGAN AJDODLARIMIZ MEROSI ILM AHLI DIQQAT MARKAZIDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bunyod etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligi munosabati bilan "Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o'rni va ahamiyati" mavzuida nufuzli xalqaro anjuman o'z ishini boshladi.

Anjuman

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekistonda Amir Temur merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Davlatimiz rahbarining 2026-yil 5-fevraldagi

"Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan mazkur anjuman yurtimizda milliy merosni chuqur o'rganish, uni xalqaro miqyosda targ'ib qilish hamda buyuk temuriylar davri ilmiy-ma'naviy

yutuqlarini zamonaviy ilm-fan nuqtayi nazaridan qayta baholashga qaratilgan muhim ilmiy maydon bo'ldi.

Anjuman O'zbekiston Respublikasi hukumati tashabbusi bilan qator vazirlik va idoralar, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda xalqaro tashkilotlar hamkorligida o'tkazilmoqda. Unda mahalliy va xorijiy olimlar – tarixchi, sharhshunos, san'atshunos, arxeolog, siyosatshunoslar, shuningdek, nufuzli universitetlar professor-o'qituvchilari qatnashmoqda.

TARIXGA EHTIROM VA KELAJAKKA ISHONCH IFODASI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Ijodkorlar tomonidan yaratilayotgan yangi asarlar, film va sahna namunalari, qayta nashr etilayotgan noyob manbalar Sohibqiron merosining barhayot ekanini namoyan qilmoqda. Jumladan, mashhur "Temur tuzuklari" asari yangidan nashr etildi. Yurtimizda ulug' bobomiz nomi bilan atalgan davlat mukofotlari, maydon va xiyobonlar, metro bekati, ta'lim va madaniyat maskanlari mavjud. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan hududlarda ochilgan "Temurbeklar maktablari" yosh avlod qalbidagi vatanparvarlik, sadoqat va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishda muhim o'rin tutayapti.

Tadbir davomida Amir Temur haykali poyiga gullar qo'yilib, buyuk ajdodimiz xotirasi yana bir bor e'zozlandi.

Ma'lumki, Sohibqiron Amir Temur qayerda bo'lmasin, bog'u roglar barpo etishga, har qariq yerni obod qilishga katta ahmiyat qaratgan. Ana shu bunyodkor an'analarning uzviy davomi sifatida Amir Temur xiyobonida ham ulkan obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Tadbir yakunida davlatimiz rahbari xiyobonda ko'chat ekdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligi munosabati bilan rekonstruksiya qilingan Temuriylar tarixi Davlat muzeyiga tashrif buyurdi.

Bugun yurtimizda o'zlikni anglash, milliy xotirani tiklash, ajdodlar merosini

asrab-avaylab, uni kelajak avlodga yetkazish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu ezgu maqsadlar yo'lida barpo etilayotgan yirik ma'naviy-ma'rifiy maskanlar millat ruhiyatini yuksaltirishga xizmat qilayotgan bebaho qadamlardir. Poytaxtimizda qad rostlagan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda barpo etilgan Imom Buxoriy majmuasi ana shu yuksak sa'y-harakatlarining yorqin namunasidir. Ular qatorida bundan o'ttiz yil muqaddam barpo etilgan Temuriylar tarixi Davlat muzeyining bugun zamonaviy qiyofada qayta tug'ilishi alohida ahamiyatga ega.

Endilikda mazkur muzey faqat eksponatlar saqlanadigan maskan emas, u – ilm-fan, tafakkur va ilhom manbai. Dunyo muzeyshunosligining eng ilg'or tajribalari asosida qayta ta'mirlangan bu dargoh zamonaviy shakl va mazmuni o'zida mujassam etgan holda, yangi g'oyalari, innovatsion yondashuvlar va ilmiy izlanishlar markaziga aylanoqda.

Raqamlashtirish jarayonlari muzey imkoniyatlarini yanada kengaytirdi: ekspozitsiyalar tubdan yangilandi, xorijiy to'plamlardan xarid qilingan noyob eksponatlar bilan boyitildi. Bu esa tashrif buyuruvchilarga tarixni nafaqat ko'rish, balki his etish, anglash va unga yaqinlashish imkonini beradi.

Ziyo maskanining birinchi qavatida tashkil etilgan "Buyuk Sohibqiron –

Ikkinchi Renessans asoschisi" bo'limi orqali Amir Temur shaxsiyatiga yangicha nazar tashlanadi. Ikkinchi qavatda esa sun'iy intellekt va "aqli" texnologiyalar asosida yaratilgan interfaol ekspozitsiyalar orqali buyuk temuriylar davri go'yo yana bir bor "jonlanadi". "3D" formatdagi eksponatlar, zamonaviy xaritalar esa tarixni yangi avlod uchun yanada tushunarli va ta'sirchan qiyofada namoyon etadi.

Davlatimiz rahbari muzeyning yangilangan ekspozitsiyalari va tashrif buyuruvchilar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishar ekan, ajdodlar merosini o'rganish, asrab-avaylash va uni keng targ'ib etish har qachongidan ham dolzarb vazifa ekanini alohida ta'kidladi.

– Dunyo havas qilgulik tariximiz, merosimiz bor. Sohibqiron tarixini jamlagan muzey zamonga munosib yangi qiyofaga kelgani yaxshi bo'ldi. Endi buni aholimizga, yoshlarga, xorijlik mehmonlarga yetkazish eng katta vazifamiz. Yangi O'zbekistonda yuksaltirish uchun kerakli bilimlarni qayerdan olish mumkin desangiz, bularning barchasi – ajdodlarimiz qoldirgan merosda, ilmda. Shu bois yoshlarimizni, nuroniyatlarni, umuman, aholimizni mahallabay tarzda muzeylarga olib kelib, buyuk tariximiz haqidagi bilimlarini oshirishimiz lozim, – dedi davlatimiz rahbari.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashrif asosida Temuriylar tarixi Davlat muzeyining mehmonlar kitobiga dastxat qoldirdi.

Shubhasiz, tarixni anglagan millat o'z kelajagini ishonch bilan bunyod etadi, o'z taqdirini o'zi belgilaydi. Bu – hayot sinovlarida toblangan, asrlar qatlamidan o'tib kelgan haqiqat.

Bugun millatimiz yetakchisi rahnamoligida ana shu ulug' g'oya hayotga tatbiq etilmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, madaniy merosni tiklash va asrab-avaylashga qaratilgan sa'y-harakatlar o'tmish va bugun, tarix va kelajakni mustahkam bog'lab turgan ma'naviy zanjirning metin halqalariga aylanoqda.

Bu jarayonlar inson ongi va qalbidagi chuqur o'zgarishlar yaratayotir: o'zlikni anglash, tarixdan saboq olish, dunyoga teran va hushyor nigoz tashlash, eng muhimi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik ruhi bilan yashash kabi oliy tuyg'ularni mustahkamlamoqda. Zero, millat ruhi tirik bo'lgan joyda taraqqiyot to'tilmaydi. Ana shu ruh – xalqimizning yangi uyg'onish davri poydevorini barpo etayotgan eng ishonchli tayanch, eng mustahkam suyanchdir.

Dilshod KARIMOV
("Xalq so'zi").

JAHON SIVILIZATSIYASIGA ULKAN HISSA QO'SHGAN AJDODLARIMIZ MEROSI ILM AHLI DIQQAT MARKAZIDA



9-aprel kuni O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida xalqaro anjumanning tantanalil ochilish marosimi yuqori saaviyada tashkil qilindi. Unda davlat va jamoat arboblari, yetakchi olimlar, xalqaro tashkilotlar vakillari, diplomatik korpus a'zolari ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning anjuman ishtirokchilariga tabrigini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonov o'qib eshittirdi.

Tabrikda aytilganidek, mazkur ilmiy forum o'lkamiz tarixidagi ulug'vor va yorqin bosqichni tashkil qiladigan Ikkinchi Uyg'onish davri – temuriylar Renessansi mohiyatini chuqur tahlil qilish, qizg'in muhokamalar o'tkazish, yangi loyihalarni birgalikda amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz.

Tadbir davomida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati taqdimoti o'tkazildi. "Amir Temur va dunyo tamadduni" hujjatli filmi namoyish etildi.

Ochilish marosimida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti bosh kotibi Sulton Rayev, Oksford Xalqaro islom tadqiqotlar markazi rahbari Farxon Nizomiy, Turkiya Qo'lyozmalar boshqarmasi direktori Joshkun Yilmaz, ISESCO mintaqaviy direktori Anar Karimov, IRCICA direktori Mahmut Erol Qilich va boshqalar so'zga chiqib, Amir Temur va temuriylar davrining jahon sivilizatsiyasidagi o'rni, uning ma'naviy, madaniy hamda ilmiy merosini keng o'rganish masalalariga alohida to'xtalib o'tdi.

– Davlatimiz rahbarining milliy tariximizni chuqur o'rganish, boy ma'naviy merosimizni asrab-avaylash va uni jahon hamjamiyati orasida keng targ'ib etish borasidagi tashabbuslari barchamiz uchun ulkan ilhom va mas'uliyat manbaidir, – deydi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abduholiqov. – Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki mukammal davlatchilik tizimini barpo etgan, adolat, qonun ustuvorligi va tartibni ta'minlagan buyuk siyosiy arbob sifatida jahon tarixida alohida o'rin egallaydi. Uning "Kuch – adolatda" degan tamoyili bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Buyuk temuriylar davri esa insoniyat sivilizatsiyasi tarixidagi eng yuksak madaniy va ilmiy uyg'onish davrlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Aynan shu paytda Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Termiz, Xiva, Toshkent kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlariga aylanib, dunyo ilm ahlini o'ziga jalb qilgan. Mazkur anjuman ana shu buyuk merosni chuqur o'rganish, uning turli qirralarini zamonaviy

ilm-fan nuqtayi nazaridan tahlil etish va yangi ilmiy xulosalar chiqarishga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga ega.

Yalpi majlisda so'zga chiqqanlar o'z ma'ruzalarida Amir Temur shaxsiyati, uning davlatchilik an'analari, temuriylar davriga oid noyob manbalarning ilmiy ahamiyatiga keng to'xtaldi. Mazkur anjuman xalqaro ilmiy muloqot maydoni sifatida temuriylar davri merosini turli nuqtayi nazardan tahlil etish va yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilishi e'tirof etildi.

Shuningdek, temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va san'atning yuksak ravnaq topgani, bu meros bugungi kunda ham jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga xizmat qilayotgani aytiladi. Ishirokchilar bu kabi tadbirlar tarixiy merosni anglash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi.

Konferensiyada dunyoning qator davlatlaridan kelgan olimlar qatnashmoqda. Jumladan, Turkiya, Fransiya, Italiya, Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron,



Qozog'iston va boshqa mamlakatlardan yetakchi mutaxassislar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etmoqda. Ular buyuk temuriylar davri tarixi, siyosiy tizimi, shaharsozlik an'analari, ilm-fan va madaniyat rivoji kabi yo'nalishlarda tadqiqot natijalarini taqdim qilmoqda.

Xorijiy ishtirokchilar o'z chiqishlarida Amir Temur va buyuk temuriylar davri merosining global ahamiyatini, uning Yevropa va Osiyo sivilizatsiyalari o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda tutgan o'rnini alohida e'tirof etdi.

Tadbir doirasida Amir Temur davrida davlatchilik va diplomatiya, temuriylar davri harbiy san'ati, shaharsozligi va me'morchilik, tarixiy manbalar, bu davrdagi ilm-fan va ta'lim, adabiyot, kitobat, tasviriy san'at, ijtimoiy-ma'naviy hayot singari mavzularga bag'ishlangan shu'ba yig'ilishlari o'tkazildi.

Ishirokchilar Amir Temurning poytaxtimizdagi muhtasham haykali poyiga gullar qo'ydi. Shuningdek, qaytdan rekonstruksiya qilingan Temuriylar tarixi Davlat muzeyi bilan yaqindan tanishildi.

Mazkur xalqaro anjuman doirasida tematik ko'rgazmalar, qo'lyozmalar namoyishi, madaniy tadbirlar va ilmiy muloqotlar tashkil etilmoqda. Tadbirlar 11-aprelga qadar Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Rustam JABBOROV
("Xalq so'zi").

Boqiy satrlar

Abdulla Oripov,
O'zbekiston Qahramoni,
xalq shoiri

MUBORAK VATANGA QAYTIB KELMISHSIZ...

*Har qancha faxr etsang arziydi, o'zbek,
Balqibsan bir zotning yuksak shonida.
Temurbek yulduzi Oltin qoziqdek
Charaqlar buyuklar kakhkashonida.*

*Vo ajab, yolq'iz bir Zanjirsaroyning
O'chini O'rdadan ola bilgan zot.
Turon deb atalmish kattakon joyning
Bag'riga shuncha yil sig'mabdi, nahot'!*

*Jahonni mo'g'ullar istilosidan
Qutqarib qolqolgan Bolxosiy botir –
Qocholmay taqdirning taqozosidan
Fotih deb nom olishm o'zi ham oxir.*

*Eng ulug' binolar mujassam bo'imish
Olamda tengi yo'q Samarqand-ku bor:
Temurbek jang-jadal shavqiga to'imish,
Qo'lida shamshiru tagida tulpor.*

*Hukmi oliy bilan etmish namoyon
"Kuch bu – adolatda", degan so'zlarin.
Qon to'kmish jahongir goho beomon
Yovlari tikmasdan qonli ko'zlarin.*

*Otani boladan tirik ayirib,
Toju taxt taloshi qizirkan borho.
Sulton ne zotlarning qo'lin qayirib,
Muhtasham saltanat aylamish barpo.*

*Allohim baxsh etmish shunchalar shukuh,
Komilu yetukdir shajara, zoti.
Bir yon Bibixonim, bir yonda Shohruh,
Bir yonda Ulug'bek – sinmas qanoti.*

*Ne baxtkim, tuqqan yurt bo'lganda ozod,
Muborak Vatanga qaytib kelmishsiz.
Quloq tutgaymi, deb noahil avlod,
Tashakkur, bizlarni ko'zga ilmishsiz.*

*Hamon Yer yuzida shayton tug'yoniy,
Tillarda duo-yul dillarda zarda.
Ko'rib bu noqis notinch dunyoni
Qayta bosardingiz balki, sarkarda.*

*Sa'yi niyatlarida ruhingiz sardor,
Yostuzlik chekingay, o'chgay yomonlik.
Davlatiz shamshiriga bormasin zinhor,
Hazrat, barchamizga tilang omonlik!*

ELEKTRON TIJORAT YANADA RIVOJLANTIRILADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Bugungi kunda O'zbekistonda omborlarning umumiy maydoni 634 ming kvadrat metri tashkil qilib, shundan 72 foizi Toshkent shahri va viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Mavjud omborlarning atigi 34 foizi zamonaviy "A" toifasiga mansub. Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun keyingi besh yilda 2,5 million kvadrat metr zamonaviy omborlar talab etiladi.

Shu munosabat bilan yurtimizda yirik xalqaro marketpleyslarning zamonaviy omborlar tarmog'ini kengaytirish taklif etildi.

Raqamli platformalarni hamda bond omborlarni soliq va bojxona tizimlari bilan chuqur integratsiya qilish zarurligi ta'kidlandi. Taqdimotda 2026 – 2028-yillar davomida tajriba tariqasida "import – bond ombori – maxsus elektron savdo platformasi – iste'molchi" zanjiri asosida

yangi mexanizmni joriy etish taklifi bildirildi.

Unga ko'ra, tovarlar bond omboriga joylashtiriladi, maxsus elektron savdo platformasi orqali sotiladi, bojxonada deklaratsiyalash va boj to'lovlarini esa bevosita sotuv bosqichida amalga oshiriladi. Bunday platformalar va omborlar tegishli reestr'larga kiritilib, Bojxona qo'mitasida hisobga qo'yiladi.

Shuningdek, bond omborlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun tashqi bozorlarga chiqishni yengillashtirishi, aylanma mablag'larga tushadigan yukni kamaytirishi, logistika xarajatlarni pasaytirishi va eksport raqobatbardoshligini oshirishi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari elektron tijoratni iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biriga aylantirish, mazkur sohada zamonaviy infratuzilmani yaratish, raqamli platformalar faoliyati uchun qulay va shaffof muhit shakllantirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

СҲХ ТУМАНИ АҲОЛИ ВА ТАДБИРКОРЛАР УЧУН КЕНГ ИМКОНИЯТЛАР МАСКАНИГА АЙЛНАДИ

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Yig'ilishda tumanning turizm salohiyatiga alohida e'tibor qaratildi.

So'xning betakror tabiati, musaffo havosi, daryolari va salqin iqlimi mazkur sohani iqtisodiyot drayverlaridan biriga aylantirish imkonini berishi ta'kidlandi. Masalan, Sarikanda, Rovon va Istiqlol mahallalaridan o'tgan So'x daryosi qirg'oqlarida yangi turizm obyektlarini qursa bo'ladi. Yoki bu yerda reabilitatsiya, fizioterapiya, dori-darmon logistikasi va tibbiy ta'limni bir hududda jamlagan Tibbiy xizmatlar klasterini tashkil etish uchun barcha sharoitlar mavjud.

Umuman, turizm va xizmat ko'rsatish sohasida 60 million dollar investitsiya jalb qilish, qariyb 2 ming ish o'rni yaratish, turizm xizmatlari hajmini 15 milliard so'm'ga, eksportni esa 2 million dollarga oshirish rejalashtirilgani ma'lum qilindi.

Eng muhim vazifalardan biri sifatida aholi yashashi va mehnat qilishi uchun qulay infratuzilma yaratish, tadbirkorlikni kengaytirish va bandlekni ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

Har bir mahallada 10 tadan, jami 300 ta mikroloyiha ishga tushirilib, 8,6 ming aholi kasb-hunarga o'qitiladi. Bu loyihalarga banklar tomonidan 64 milliard so'm kredit resursi yo'naltiriladi, ijtimoiy va infratuzilma obyektlari uchun esa qo'shimcha 74,5 milliard so'm ajratiladi.

Transport-logistika masalalari ham atroficha ko'rib chiqildi. Tumanning boshqa

hududlar bilan bog'liqligini oshirish, chegaradan o'tishni tezlashtirish hamda iqtisodiy aloqalarni kengaytirish bo'yicha amaliy choralar belgilandi.

Aholi daromadining asosiy qismi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ekanini inobatga olinib, ushbu sohada zamonaviy yondashuvlar va yangi texnologiyalarni keng joriy etish zarurligi ta'kidlandi.

Masalan, Qayroq massividagi 425 gektar yaylovda mevali bog'lar, Chashma mahallasidagi 60 gektar yerda za'faron plantatsiyalari, Ozod va So'x xo'jaliklariga qarashli 100 gektar maydonda kartoshka yetishtirish loyihalarini amalga oshirish taklif etildi. Shuningdek, Navobod mahallasida baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha loyiha taqdim etildi. Unga ko'ra, 50 sotixdan 30 ta hovuz tashkil qilinib, har bir hovuzdan 50 tonnadan forel baliqi yetishtirish mumkin.

Shu bilan birga, Devayron va Tul-dasht hududlari oralig'ida 8 kilometr uzunlikda o'zi oqar sug'orish tarmog'i qurilishi hisobidan 500 gektar mevali bog' va qo'shimcha 300 gektar ekan maydonini o'zlashtirish imkoniyati mavjudligi ko'rsatib o'tildi.

Davlatimiz rahbari So'x tumanini rivojlantirishda eng asosiy maqsad odamlar hayotida sezilarli o'zgarish qilish, aholi daromadini oshirish, ish o'rinlari yaratish va hududning transport bog'liqligini yanada kuchaytirishdan iborat ekanini ta'kidladi. Mutasaddilarga tuman bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

O'zA.

Uchrashuv

UMUMIY YONDASHUVLARNI ISHLAB CHIQUISHNING TA'SIRCHAN MEXANIZMI

Avval xabar qilganimizdek, Fransiya Respublikasi Senatining Tashqi ishlar, mudofaa va Yevropa ishleri komissiyasi a'zosi Valeri Boye boshchiligidagi delegatsiya mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turibdi.

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva senator Valeri Boye yetakchiligidagi Fransiya Senati delegatsiyasi bilan uchrashdi.

Suhbat chog'ida oliy darajadagi konstruktiv muloqot tufayli O'zbekiston – Fransiya munosabatlari jadal rivojlanib, strategik sheriklik maqomiga ko'tarilgani ta'kidlandi. Fransiya O'zbekistonning ishonchli va uzoq muddatli hamkori ekanini qayd etildi.

Savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va ta'lim sohalaridagi aloqalarning

ijobiy natijalari muhokama qilindi. Tomonlar, shuningdek, agrar va suv xo'jaligi, energetika, sanoat, oziq-ovqat, transport, logistika yo'nalishlaridagi qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalarini ham ko'rib chiqib, xalqaro maydondagi tashabbuslar o'zaro qo'llab-quvvatlanishini ta'kidladi.

Ikki davlat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlashning muhim elementi sifatida parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlash va amaliy hamkorlikni kengaytirishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

MUSHTARAK O'TMISH VA ISTIQBOL

9-aprel kuni Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyevaning taklifiga binoan Qozog'iston Respublikasi Parlament Senati Raisi Maulen Ashimbayev boshchiligidagi delegatsiya Samarqand shahriga amaliy tashrif bilan keldi.

Forum

Tashrif doirasida ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan qator muhim tadbirlar rejalashtirildi. Xususan, delegatsiya a'zolari o'rtasida ikki tomonlama uchrashuv o'tkazilib, parlamentlararo muloqotni

rivojlantirish va tajriba almashish masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qozog'iston Respublikasi Parlament Senati o'rtasida o'zaro hamkorlik bo'yicha komissiyaning beshinchi yig'ilishi o'tkazilishi nazarda tutilgan.



Shuningdek, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida "Umumiy o'tmishdan

– mushtarak kelajak sari" mavzuida o'zbek – qozog' ilmiy-ijodiy ziyolilarining ikkinchi forumi bo'lib o'tadi. Unda buyuk mutafakkirlar, shoir va olimlar, faylasuflar merosini asrab-avaylash hamda targ'ib etish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Delegatsiya a'zolari forum doirasida tashkil etiladigan ilmiy, badiiy va ijodiy ishlar ko'rgazmasi, shuningdek, innovatsiyalar va texnologiyalar burchagi bilan tanishadi.

"Xalq so'zi".

HALOLLIK VA MAS'ULIYAT – BOSH MEZON

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida Prezident huzurida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida ichki ishlar organlari xodimlari uchun aholi murojaatlari bilan ishlash samaradorligini oshirishga qaratilgan o'quv kursi tashkil etildi.

Seminar

Tadbirida Prezident Administratsiyasi tegishli tarkibiy bo'linmalari, Oliy Majlis Senati, Oliy sud, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Korrupsiyaga qarshi

kurashish agentligi, Advokatlar palatasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi, shuningdek, akademiyaning yetakchi professor-o'qituvchilari va soha ekspertlari ishtirok etdi. O'quv kursida Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq

Safoyev hamda Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov ishtirok etib, professional muomala madaniyati, samarali kommunikatsiyani ilmiy asoslari, nizolarni boshqarish va psixologik usullar, manzilli ishlash konsepsiyasi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish borasida amalga oshirilgan islohotlar yuzasidan ma'ruza qildi.

Senatorlar o'z chiqishida soha xodimlarining aholi bilan ishlashdagi professional kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga alohida to'xtalib o'tdi. Ichki ishlar xodimining muomala madaniyati, bu, davlatga ishonch ko'zguisi ekani ta'kidlandi. Zero, fuqaro tizim xodimi bilan muloqotda nafaqat tartib posbonini, balki davlatning adolati va himoyasini ko'radi.

O'quv kursi yakunida tinglovchilarga muloqot san'atini egallash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilib, kasbiy faoliyatda odob-axloq qoidalariga rioya qilish eng kuchli ishonch ekani ta'kidlab o'tildi.

"Xalq so'zi".

Munosabat

Amir Temur davrida yuksalgan an'analar

Prezidentimizning kecha O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida ish boshlagan "Amir Temur va temuriylar tamadunining jahon tarixi va madaniyatidagi o'imi va ahamiyati" mavzuidagi xalqaro ilmiy konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida mazkur ilmiy forum diyorimiz tarixidagi ulug'vor va yorqin bosqichni tashkil etadigan Ikkinchi Uyg'onish davri – temuriylar Rennessansi mohiyatini chuqur tahlil qilish, qizg'in muhokamalar o'tkazish, yangi loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlandi.

Darhaqiqat, Amir Temur jahon tarixida buyuk sarkarda, davlat arbobi va ma'naviyat homiysi sifatida alohida o'rin tutadi. Temuriylar davrida shakllangan qadriyatlar tizimi jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Aynan shu pilla "Ikkinchi Rennessans" davri deb atalgani ham bejiz emas, chunki bu yillarda ko'p jihatdan ilm-fan va madaniyat misli ko'rilmagan darajada rivojlangan hamda shakllangan qadriyatlar tizimi jamiyat hayotining barcha jahalida o'z aksini topgan.



Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatga katta e'tibor qaratildi, me'morchilik va san'at yuqori cho'qqiga chiqdi. Ayniqsa, keyingi avlod vakillari, jumladan, Mirzo Ulug'bek tomonidan ilm-fan yanada rivojlantirildi. Madrasalar va kutubxonalar qurildi, olimlar va shoirlar qo'llab-quvvatlandi, astronomiya, matematika, tibbiyot sohalari taraqqiy etdi. Bu jarayonlar

jamiyatning ma'naviy yuksalishiga olib keldi. Samarqand va boshqa shaharlar jahon miqyosidagi madaniy markazlarga aylandi. Masjidlar, madrasalar va saroylar barpo qilindi, naqqoshlik va hunarmandchilik rivojlandi, shaharsozlik san'ati yuksaldi. Bu davrda qurilgan obidalar hozirgacha o'z go'zalligi bilan dunyoni hayratga solib kelmoqda.

Amir Temur o'z qo'shinida qat'iy intizom o'rnatgani hamda vatanparvarlik ruhini kuchaytirgani bilan ham tarixda qoldi. Askarlarning sadoqat va jasorat ruhida tarbiyalangani, harbiy strategiya va taktika yuqori darajada bo'lgani, Vatan himoyasi muqaddas burch

sifatida qaralgani muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qadriyatlar Amir Temur qo'shinlarining g'alabalarida asosiy omil bo'lgan.

Sohibqiron saxovatli va insonparvar hukmdor sifatida ham tanilgan. Ushbu davrda kambag'allarga yordam ko'rsatish, obodonchilik ishlarini amalga oshirish, jamoat manfaatlarini ko'zlash kabi qadriyatlar xalq orasida mehr-oqibat muhitini shakllantirgan. Bu esa, o'z navbatida, bugun yurtimizda olib borilayotgan islohotlar aynan Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimizning adolati davlat boshqaruvining izchil davomi ekani namoyon qiladi.

Amir Temur davrida shakllangan qadriyatlar tizimi jamiyat taraqqiyotida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan. Adolat, ilm-fanga hurmat, madaniyat va san'atga e'tibor, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi fazilatlar o'sha davrning asosiy belgisi hisoblanadi.

Bu qadriyatlar nafaqat o'tmish merosi, balki kelajak avlod uchun ham muhim ma'naviy asosdir. Ular yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash, jamiyatni rivojlantirish va milliy qadriyatlarni saqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Nigora LUTFULLAYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

O'zbekiston – Rossiya:

KO'P QIRRALI ALOQALARNING YANGI BOSQICHI

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bilan Rossiya Federatsiyasi Bosh prokuraturasi o'rtasidagi aloqalar tobora rivojlanib bormoqda. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Bosh prokuratori Aleksandr Gutsan boshchiligidagi delegatsiyaning mamlakatimizga tashrifi ushbu munosabatlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

Hamkorlik

Delegatsiya a'zolari dastlab G'alaba bog'iga tashrif buyurdi. Rossiya Federatsiyasi Bosh prokuratori A. Gutsan "Matonat madhiyasi" monumentiga gulchambar qo'ydi.

Shuningdek, tashrif doirasida ikki davlat nazorat organlari rahbarlari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratori Nig'matilla Yo'ldoshev mamlakatimiz va Rossiya Bosh prokuraturalari o'rtasidagi aloqalar serqirra va dinamik tavsifga ega ekanini qayd etdi.

Uchrashuvda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida davlat hamda jamiyat hayotining barcha jahasida, jumladan, sud-huquq sohasida,

shuningdek, prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar haqida Rossiya delegatsiyasi vakillariga ma'lumot berildi.

Do'stona va konstruktiv muloqot chog'ida tomonlar hamkorlikning joriy holatini muhokama qilib, idoralararo aloqalarni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab oldi.

Xususan, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, jumladan, kibernetika va boshqa uyushgan jinoyat turlariga qarshi kurash, prokuratura faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tajriba almashish, shuningdek, prokuratura organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va

malakasini oshirish yo'nalishlarida ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash masalalari yuzasidan kelishuvga erishildi.

Uchrashuv yakunida ikki davlat Bosh prokuratori o'rtasida Hamkorlik dasturi imzolandi.

Shundan so'ng Nig'matilla Yo'ldoshev Aleksandr Gutsanga hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan shaxsiy hissasini uchun minnatdorlik bildirib, unga "O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi" ko'krak nishonini topshirdi.

So'ngra delegatsiya O'zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyiga tashrif buyurib, idoraning ko'p yillik tarixi, tajribasi va faoliyatiga oid eksponatlarini ko'zdan kechirdi.

Tashrif doirasida delegatsiya a'zolari O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida ham bo'lib, uning faoliyati, shuningdek, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida amalga oshirilgan islohotlar bilan tanishdi.

"Xalq so'zi".

Tahlil

QADRIYATLARGA TAYANGAN MILLIY TARAQQIYOT ODIMLARI

Har qanday siyosiy kuchning saylovlardan keyingi faoliyati, shubhasiz, navbatdagi saylovlarga tayyorgarlik hisoblanadi. Ana shunday talabdan kelib chiqib, mamlakat siyosiy maydonidagi ikkinchi yirik partiya – "Milliy tiklanish" va uning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi asosiy e'tibori ayni paytda Saylovoldi dasturida belgilangan vazifalar hamda saylovchilar manfaatini yo'lladigan tashabbuslar ijrosiga qaratilgan.

"Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot" shiori ostida faoliyat olib borayotgan "Milliy tiklanish" DP, qariyb o'n yildirki, "Inson – jamiyat – davlat" va "Inson qadri uchun" ezgu tamoyillariga asoslangan Yangi O'zbekiston islohotlarini qo'llab-quvvatlab kelyapti.

Qayd etish joizki, 2026-yilning birinchi samarali kechdi: joylarda 882 ta uchrashuv tashkil etilib, ularda 20 mingdan ziyod fuqarolar qamrab olindi. Eng asosiysi, ana shu tadbirlar davomida saylovchilar ko'targan 1221 ta masalaning 172 tasi joyida hal qilindi. Tuman va shaharlar miqyosidagi 652 ta, viloyatlarga tegishli 375 ta hamda respublika darajasidagi 22 ta masala yechimi esa deputatlar tomonidan nazoratga olingan. Bundan tashqari, joylarda elektorat manfaatlarini himoya qilish, Saylovoldi dasturida ilgari surilgan g'oya va tashabbuslarni amalga oshirish, tarbiya hamda ta'lim tizimi, pedagoglar maqomi va turizm sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha ham tizimli ishlar olib borildi.

Eng asosiysi, 60 ta qonun loyihasi yuzasidan parlamentda kechgan muhokamalarda saylovchilarning huquq va manfaatlarini qat'iy himoya qilinish, ular tomonidan bildirilgan takliflarning aksariyati qonunchilikka singdirildi. Shuningdek, joylarda ilgari surilgan 38 ta muhim taklifning o'ndan ziyodidan qonunlar ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonida foydalanildi.

Organlar davomida aniqlangan hayotiy muammolar yechimi yuzasidan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlariga 3 ta deputatlik so'rovi yuborildi. Tizimli muammolar, qonun va qonunosti hujjatlarining jiro holati yuzasidan esa tegishli mansabdor shaxslarning hisobotlari ham eshitildi.

Ma'lumki, yangi yildan boshlab, deputatlar har o'yning oxirgi haftasida o'z saylov okruglarida bo'lib, Yangi O'zbekiston islohotlari natijalari bilan tanishmoqda. Ana shu jarayonda saylovchilarga Prezidentimizning farmon va qarorlari, videoselektor yig'ilishlarida muhokama etilgan masalalar, qonunchilikdagi o'zgarishlarning mazmun-mohiyati haqida batafsil axborot berilyapti. Yakunda esa fuqarolarni o'ylantirayotgan ijtimoiy muammolar o'rganilib, ularni hal qilish choralari ko'rilayapti. Aholi va biznes subyektlari bilan o'tkazilayotgan ana shunday ochiq muloqotlarda ham islohotlar rivoji va tadbirkorlikka to'siq bo'layotgan masalalar bo'yicha qonunchilikka takliflar olinayapti.

Jumladan, 28 – 31-yanvar kunlari tashkil etilgan o'rganishlarda jamoatchilikka Prezidentimiz ishtirokida o'tgan tadbirlar, xususan, kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligi bo'yicha 2026-yilda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar, jamoat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishlarning ahamiyati to'g'risida asoslantirilgan axborotlar berildi. Bu borada saylovchilarning taklif va mulohazalari o'rganilib, partiyaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy obyektlardagi sharoitlar tahlil qilindi.

To'rt kun davom etgan ana shu uchrashuvlarda jami 240 dan ortiq obyektlar – fuqarolar yig'ini, aholi xonadonlari, ijtimoiy soha obyektlari, tadbirkorlik subyektlaridagi holatlar atroficha o'rganildi. Joylarda aholi bilan o'tkazilgan 160 ga yaqin uchrashuvlarda salkam 120 ta masala ko'tarilgan bo'lsa, ularning 50 ga yaqini joyida hal etildi. Qolganlariga esa mahalliy ijro hokimiyati bilan birgalikda yechim topish choralari ko'ildi.

26 – 28-fevral kunlaridagi o'rganishlar davomida ham 229 ta uchrashuv tashkil etildi: eng asosiysi, mahalliy Kengash deputatlari hamrohligida o'tgan sayyor qabullar, yuzma-yuz uchrashuvlar, "Deputat qabullari" va yoshlar bilan ochiq muloqotlarda aholini o'ylantirayotgan 200 dan ziyod hayotiy muammolar, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish masalalariga yechimlar izlandi. Shu o'rinda deputatlarimiz Tarbiya fani darsligining o'qitilishini nazorat-tahlil tartibida alohida o'rganganlarini

ta'kidlash joiz. Chunki Prezidentimiz tashabbusi bilan yoshlar ongiga umuminsoy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda olib borish maqsadida 2020-yili joriy kutilgan Tarbiya fani hamon maktablarimizda kutilgan darajada o'qitilmayapti.

Fraksiya a'zolarining navbatdagi o'rganishlarida saylovchilar tomonidan ko'tarilgan 200 ga yaqin masalalarning 138 tasi tuman va shahar, 30 tasi viloyat, qolgan esa respublika darajasidagi masalalar hisoblanadi. Ularning 59 tasi, ya'ni 29,6 foizi joyida hal etildi. Sohalar kesimida tahlil qilindagina, eng ko'p murojaat ta'lim, sog'liqni saqlash, mahalla faoliyati, transport va yo'l qurilishidan tushgan.

Ma'lumki, parlament quyi palatasi deputatlarining siyosiy faolligi va saylovchilar oldidagi mas'uliyati haqida gap ketganda, ularning tashabbuskorligini yanada kuchaytirishga bejiz urg'u berilmayapti. Shu maqsadda 2025-yil 29-avgustda Prezidentimizning "Tashabbusli byudjet jarayonlarini takomillashtirish doirasida xalq vakillari va saylovchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu tarixiy hujjatda belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, fraksiya a'zolarining 24 – 27-mart kunlaridagi o'rganishlarida ijro organi vakillari, mahalliy Kengash deputatlari hamda partiyaning hududiy kengash a'zolari hamrohligida asosiy e'tibor yetarlicha ovoz to'play olmagun loyihalarga qaralindi. Shu maqsadda joylarda 300 ga yaqin uchrashuvlar tashkil etilib, 140 dan ortiq ijtimoiy obyektlardagi sharoitlar tahlil qilindi. 150 ta mahalla, 30 dan ortiq tadbirkorlik subyektlari o'rganildi. Maqsad aholining kundalik hayotini yanada yaxshilashga xizmat qiluvchi 29 ta loyihani tanlab olish edi.

"Milliy tiklanish"chilar to'rt kunlik o'rganishlar davomida o'z maqsadlariga erishdi, deb bemalol aytilish mumkin: fraksiya a'zolari uchun ajratilgan 95 mlrd. 700 mln. so'm mablag'ning qariyb 47 mlrd. so'mini sarflash bo'yicha loyihalar tanlab olindi. Ta'kidlash joizki, aksariyat loyihalar partiyaviy maqsad va vazifalar hamda g'oyalari ijrosidan kelib chiqqan holda tanlandi: maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hal etilmayotgan muammolar, qishloqdan maktabgacha olib boradigan sifatsiz yo'l va ko'priklar, kollej va boshqa ta'lim maskanlarini ta'mirlash shular jumlasidandir.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi asosida shunday loyihalarni fuqarolarning tanlovi bo'yicha mohiyalashtirish, ya'ni "Tashabbusli byudjet" instituti bugun o'zini to'la oqlamoqda. Deputatlar tanlovi bilan mohiyalashtiriladigan "ikkinchi imkoniyat" esa bu tajribani yanada samarali va xalqchil loyihaga aylantiryapti. Va albatta, Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan ilk amaliyot, shubhasiz, joylardagi ijtimoiy muammolarni manzilli hal qilish va xalq vakillari bilan aholi o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda fraksiyaning partiya bilan aloqalari multaqo yangi tizim asosida rivojlanayotganini, bunda deputatlar katta kuchga aylanayotganini aytilish joiz. Partiyaning asosiy elektorati sanalagan maktabgacha ta'lim muassasalarini tarbiyachilari va umumiy o'rta ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi pedagoglarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar va ayollar muammolariga samarali yechim topishga qaratilgan loyihalar korporatsiyasini oshirishda ham deputatlik kamasir asosiy tashabbuskor sifatida maydonga chiqmoqda.

Alisher QODIROV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi "Milliy tiklanish" DP fraksiyasi rahbari.

Sport – sog'lom jamiyat asosi

Jismoniy tarbiya va sport faqatgina inson salomatligini mustahkamlashga xizmat qilib qolmasdan, balki jamiyat taraqqiyoti, millat salohiyati va mamlakat rivojini oshirishda ham muhim vositadir. Shu ma'noda, Prezidentimiz rahbarligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida mazkur sohani yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish va professional tayyorgarlik tizimini takomillashtirishga qaratilgan vazifalar belgilab berilgani alohida tahsinga loyiq.

Avvalo, aytish joizki, sportga berilgan bunday e'tibor zamirida inson omili, uning sog'lom va barkamol hayot kechirishini ta'minlash g'oyasi mujassam. Chunki sog'lom avlod – bu kuchli jamiyat va barqaror taraqqiyotning poydevori.



Prezidentimiz ta'kidlaganidek, sport nafaqat jismoniy baquvvatlik, balki intizom, iroda, vatanparvarlik va yurt sha'nini himoya qilishdek yuksak fazilatlarini ham shakllantiradi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sport infratuzilmasini rivojlantirish, yangi inshootlarni barpo etish, yoshlar o'rtasida ommaviy sportni ommalashtirish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilyapti. Endilikda esa e'tibor nafaqat qamrovi kengaytirishga, balki uning samaradorligiga qaratilmoqda. Ya'ni aholining qancha qismi sport bilan shug'ullanayotgani bilan birga, ularning sog'liq ko'rsatkichlari, hayot sifati va faolligi ham asosiy mezon sifatida baholalanadi.

Bu, o'z navbatida, mahalla darajasida ishlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Chunki aynan mahalla – ommaviy sportni rivojlantirishning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Agar har bir mahallada sport muhiti shakllanib, aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning jismoniy faolligi oshsa, bu umummilliy sog'lomlashuvga xizmat qiladi.

Yig'ilishda yana bir muhim jihat – rahbar kadrlarning shaxsiy namunasiga e'tibor qaratildi. Har bir vazir, tarmoq va bank rahbari, shuningdek, hokimlar sport bilan shug'ullinishda o'zlari namuna bo'lishi kerakligi aytiladi. Bu juda to'g'ri yondashuv, chunki jamiyatdagi o'zgarishlar, avvalo, yetakchilarning shaxsiy namunasi orqali shakllanadi. Agar rahbarlar sog'lom turmush tarzini targ'ib etsa va amalda isbotlasa, bu keng jamoatchilikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi muqarrar.

To'rt murchasi sog' odamlarning sport bilan shug'ullanishi uchun ozgina hafsala va rag'batning o'zi kifoyi. Ammo jismoniy jihatdan nuqsonli bor insonlar haqida bunday deb bo'lmaydi. Chunki ular uchun alohida sharoit va e'tibor zarur. Bunda para va adaptiv sportni rivojlantirish dolzarb masalaga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, Prezident olimpiadasini para sport turlari bo'yicha ham o'tkazish tashabbusi ijtimoiy adolat va inklyuzivlik tamoyillarining yorqin ifodasi bo'ldi, deyish mumkin. Bu orqali imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun ham teng sharoitlar yaratish, ularning jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlash maqsad qilingan.

Adaptiv sport bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish esa bu sohaning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Zero, malakali mutaxassislaris har qanday islohot kutilgan natijani bermaydi. Shu bois sport ta'limi tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribani qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Sport sohasida belgilangan vazifalar nafaqat jismoniy tarbiyani rivojlantirish, balki butun jamiyatda sog'lom muhitni shakllantirishga qaratilgani e'tibori. Zero, sport – bu shunchaki mashg'ulot yoki musobaqa emas. U millat g'ururi, sog'lom hayot manbai va kelajak avlod tarbiyasining muhim vositasidir. Shuning uchun ham bu sohadagi islohotlarni izchil davom ettirish, har bir fuqaroni sportga oshno qilish va sog'lom turmush tarzini hayot mezoniga aylantirish barchamizning ustuvor vazifamiz bo'lib qolaveradi.

Shuhrat ASLANOV, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi.

RADDIYA TALABIGA RADDIYA

Tahririyatimizga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan xat keldi. Axborot xizmati boshlig'i X. Klichev imzosi bilan yuborilgan bu xatda "Xalq so'zi" gazetasi 2026-yil 25-mart sonida chop etilgan "So'zbo'yamachilik yoxud ba'zi tashkilotlarning xalq murojaatlariga panja orasidan qarayotgani xususida" sarlavhali maqola haqida so'z boradi.

Tahririyat pochtasidan

Ta'kidlanishicha, maqolada keltirib o'tilgan Karmana tumani "Ko'hna qo'rg'on" MFYda yashovchi fuqaro Marjona Qurbonovning 3 nafar farzandiga tug'ilganlik haqidagi guvohnoma olishda yordam so'rab qilgan murojaati yuzasidan 2026-yil 6-yanvar kuni Karmana tumani FHDYO bo'limi bilan hamkorlikda amaliy choralar ko'rilgan, ya'ni guvohnomalar rasmiylashtirib berilgan. Shu bois gazeta mazkur fakt bo'yicha raddiya e'lon qilishi lozim, deyiladi unda.

Biroq axborot xizmati rahbari bir jihatga e'tibor qaratmaganda. Maqola 25-mart kuni chop etilgan bo'lsa-da, unda 2025-yil yanvarni haqida gap ketgan. Xususan, O'tgan yili Navoiy viloyati aholisidan Prezidentning Xalq qabulxonalariga 40 426 ta murojaat kelib tushgan" deb boshlangan maqolada muallif 13 930 ta murojaatga idoralari faqat tushuntirish berish bilan cheklanganini

yo'zadi va misol tariqasida Marjona Qurbonovning murojaatini keltiradi.

Chindan ham, agar xatda aytib o'tilganidek, murojaatchining iltimosi 6-yanvar kuni qondirilgan bo'lsa, demak, yil yakunida bu hali o'z yechimini topmagan masala sifatida qolgan. Shu nuqtayi nazardan, maqolada noto'g'ri fakt keltirilgan, deyish no'r'in. Qolaversa, o'rganishlar Marjona Qurbonovning 2025-yil 3-dekabrda bu murojaati 17-dekabr kuni Adliya boshqarmasi mas'ul xodimlari tomonidan tuzilgan dalolatnoma bilan ro'yxatdan chiqarilganini ko'rsatmoqda. Buni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud.

Bundan tashqari, X. Klichev xatda "O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq, jurnalist o'zi tayyorlayotgan materiallarning haqqoniyligini tekshirishi hamda xolis axborot taqdim etishi shart"ligini eslatadi. Lekin shu Qonunning



15-moddasi yoki "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunning 40-moddasi talablari haqida lom-mim demaydi. Vaholanki, bu moddalarda agar ma'lumot rasmiy manbadan olingan bo'lsa, uning haqiqatga to'g'ri kelishi yoki kelmasligi uchun jurnalist javobgar bo'lmaydi belgilab qo'yilgan. "So'zbo'yamachilik yoxud ba'zi tashkilotlarning xalq murojaatlariga panja orasidan qarayotgani xususida" sarlavhali maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Navoiy viloyatidagi Xalq qabulxonasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga hamda xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashiga kiritilgan axboroti asosida tayyorlangan bo'lib, bu axborot 18-

Yangi limonzorlar barpo etish va ko'chatlar xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar har bir sotix uchun 300 ming so'mgacha miqdorda subsidiya sifatida qoplab beriladi.

"Xalq so'zi".

10-aprel – Abdulla Qodiriy tavallud topgan kun

XOTIRASI MANGU BARHAYOT

Abdulla Qodiriy – o'zbek xalqining betakror adibi. Bir asr oralig'ida o'nlab romanlar yozildi, ammo ular orasida "O'tkan kunlar"dan o'tadigani bo'lmadi. Bu ijodkorning hayotini, insonni yaxshi bilishi va ulug' so'z muhandisi ekanini anglatadi. Shu jihatdan qaraganda, Qodiriyning yuksak mahorati bugungi qalam ahli uchun ulkan dorilfunundir.

Toshkentdagi markaziy ko'chalardan biri, Chorsu atrofidagi madaniyat va istirohat bog'i, Yunusobod yo'nalishidagi metro bekati, ijod maktabi ham adib nomi bilan ataladi. Samarqand darvoza ko'chasidagi uy-muzeyiga borsangiz, qosh-ko'z'lari Qodiriy bobomizga o'xshab ketgunchi, adibning nevarasi Xondamir Qodiriy maskandagi nodir buyumlar bilan tanishtiradi, ular bilan bog'liq xotiralarni bajonidil so'zlab beradi. Ikki qavatli shiypon, naqshinkor eshiklar, hunarmandlikning nodir ustunlari va rang-barang devorlar o'sha davrning og'riqlari va ijod mashaqqatini biron bo'lsa-da, his qilishga yordam beradi. Beixtiyor so'zida qo'lida kitob tutib, o'tkir va o'ychan nazar bilan atrofga qarayotgan Abdulla Qodiriy haykali adib bilan yonma-yon turgandek his uyg'otadi, g'oyibona sirlashingiz keladi.

Bundan 89 yil muqaddam 31-dekabrda yovuz va mustamlakachi kuchlar shu xonadondan bobomni olib ketishgan, – deydi uy-muzey rahbari Xondamir Qodiriy. – Munavvar qori boshchiligidagi jaded ziyolilar surgun qilingan davrda bu qattol tuzum nimalarga qodiriligini bobom yaxshi

ijodi va u yashagan xonadonga bunchalik e'tibor bo'lmagan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2019-yilda Abdulla Qodiriy yashagan uy muzeyga aylantirildi. Shundan keyin adib ijodini to'kis o'rganishga imkoniyat yaratildi. "O'tkan kunlar" asari rus, ingliz, xitoy, arab, nemis tillariga tarjima qilindi. Endilikda muzeyga nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xorijdan ham adabiyot shaydolari kelyapti. Albatta, bobom hayotini idrok etish uchun arxiv materiallarini o'rganish kerak. Asarlaridagi biror obraz tasodif emas, hammasi hayotdan olingan. Yusufbek, Otabek, Mirzo Anvar, Obid Ketmon – bobomning o'zi bular! Qodiriy tasvirlagan Yusufbek hojidek bobom jamiyatda ham, oila davrasida va farzandlari oldida ham yuzi yorug', vijdonli, iymonli shaxs bo'lgan.

Adibning ijodi qay darajada behabohligini anglash uchun yarim asrdan ko'proq vaqt talab etildi. Oliy sudning 2023-yil 1-dekabrda majlisida Abdulla Qodiriy to'liq oqlandi. Quvonarlisi, yozuvchi ijodiy merosini



bilgan. 1938-yil 4-oktabr kuni qatl etilgan, ammo hayot va mamotiga oid rasmiy hukm 5-oktabrda chiqarilgan. Keyin "xalq dushmanining o'g'li" sifatida otam Habibulla Qodiriy ham Sibir, Qarag'anda – Qozog'iston cho'rlariga surgun qilishdi. Taqdirni qarangi, bobomni so'roq qilgan tergovchi otmani ham so'roqqa tutadi. Abdulla Qodiriy oqlanishi jarayonida esa otam shu tergovchi bilan yuzma-yuz keladi, u o'zini aybdordek sezadi. Ma'lum bo'lishicha, tergov jarayonlaridan keyin o'sha tergovchining ham boshiga surgun – sargardonlik qismati tushadi. Shu paytgacha ulug' yozuvchi

xalqaro miqyosda e'tirof etish va uning o'lmas asarlariga qiziqish ham yil sayin ortib bormoqda.

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi bu yo'nalishdagi dastlabki maskanlardan biri hisoblanadi, – deydi mazkur ijod maktabi direktori Shoira Sodiqova. – Ushbu muassasaga o'quvchilar 7-sinfdan tanlov asosida, maxsus imtihonlar yordamida bilimi va iste'dodiga ko'ra saralab olinadi. Iste'dodli o'quvchilarning ilk kitoblari nashr qilinmoqda. Ular orasida Samariddin Qodiriyning hikoyalari to'plamini e'tirof etish mumkin. O'quvchilarning xorijiy tillari mukammal

Adiba UMIROVA ("Xalq so'zi").

ADIBNING MEHRI TUSHGAN MAHALLA

"Men Marg'ilon ko'chalarida yurib, karvonsaroy, eski O'rda o'rinlarini belgiladim. Mirzakarim quddir, usta Olim, Homid, Sodiqlar uyini taxminladim va "Xo'ja Ma'oz"da bir kecha tunadim..."

O'zlik

"Xo'ja Ma'oz" ziyoratgohining Marg'ilon shahridagi tabarruk maskanligini yaxshi bilgan yozuvchi Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanida ushbu qadimiy go'shani tasvirlarkan,

Xo'jamag'iz mahallasidagi ziyoratgoh xalq orasida "Xo'jamag'iz", "Xasti Ma'oz" mozori, deya ataladi. Bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalarda ushbu mozor nomi Hazrat Ma'oz Jabal, deya tilga olinadi.

Rolaligimizda nuroniylardan Abdulla Qodiriy va uning adabiy qahramonlari bilan bog'liq ajoyib xotiralarni eshitganmiz, – deydi "Yoyilma" MFYda istiqomat qiluvchi mehnat faxriysi Abduhoshim Ibragimov. – Shunday tabarruk zotning izi qolgan mahallada yashayotganimdan faxrlanam.



"Bir necha yuz yillardan beri yashab, favqulodda zo'rayib ketgan "Xo'ja Ma'oz" mozarining chakalagi bu qorong'u ulikka bir manba kabi edi", deb yozadi. Adibimiz Marg'ilonga kelgan kezlari ziyoratchilar bilan suhbatlashib, ularning birda yoqimli, birda qayg'uli xotiralarni qog'ozga tushiradi.

Mahalladagi 1,5 mingdan ziyod oilalarning 80 foizi hunarmand, o'zim ham sandiqsozlikda beshinchi avlod vakiliman. Marg'ilonada Kumush, Otabek, Abdulla yoki Abdulloh ismi hamon urfda.

Bir necha yillardan buyon Marg'ilonada yashab o'tgan madaniyat va san'at sohasi namoyandalari xotiralari asosida Abdulla Qodiriy yurgan yo'llar, mahallalar, ziyoratgohlar va u suhbatlashgan insonlar hayoti

qunt bilan o'rganilmoqda. Burhoniddin Marg'inoniy majmuasida "Otabek va Kumush uyi" qad rostlayotgani ham buning tasdig'idir.

Mamlakatimizning boshqa viloyatlari, qo'shni mamlakatlari va turkiy davlatlardan tashrif buyurgan mehmonlar Qodiriy va Kumush bilan bog'liq joylarni ko'rsatishimizni so'rashadi, – deydi Farg'ona viloyati turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Muzaffar Temirov. – Shu sababli, "Otabek va Kumush uyi" turizm majmuasiga uyg'un holda ikki-uch kunlik turizm yo'nalishi ishlab chiqilmoqda. Endilikda sayyohlar "O'tkan kunlar" asari muallifi va adabiy qahramonlari bilan bog'liq mahallalarni to'liq ziyorat qilish imkoniga ega bo'ladi.

Bugun Yoyilma va Xo'jamag'iz mahallasini temir yo'l ikkiga ajratib turadi. Ammo azaldan qo'ni-qo'shni bo'lib yashaydigan mahallalar ahlining yaxshi-yomon kunlari birgalikda o'tadi. Xo'jamag'izliklar ham dehqonchilik mirshirkori, ayniqsa, gulchilikda ularning oldiga tushadigani yo'q. Marg'ilonning bu mahallalari oddiy hudud emas. Ular – o'timish va bugungi bog'lab turgan qadriyatlar maskani. Qodiriy qalami bilan abadiylashtirgan muhabbat, sadoqat, or-nomus ruhi bugun ham bu joylarda sezilib turadi.

Botir MADYOROV ("Xalq so'zi").

MAMLAKAT NUFUZINI NAMOYON QILADIGAN KATTA KUCH

Prezidentimiz raisligida 7-aprel kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi paradigma boshlab berildi. Bu yig'ilish sport alohida soha sifatida emas, balki millat salohiyati, sog'liq va ijtimoiy barqarorlikni belgilaydigan strategik tizim sifatida ko'rish zarurati ochiq-oydin namoyon etdi. Sohada erishilayotgan yutuqlar bilan birga, muammolar ham tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha mutasaddilarga aniq vazifalar belgilandi.

Nuqtai nazar

Prezidentimiz tomonidan Termiz universiteti tajribasini o'rganish va 207 ta oliygohda joriy etish bo'yicha berilgan topshiriq lokal yutuqdan milliy tizimga o'tishning aniq qadamidir. Mazkur tajriba haqiqatan ham sportni o'quv jarayoniga integratsiya qilish, talabalar bilan individual ishlash mexanizmlarini joriy etish, sport natijalarini baholashda aniq indikatorlarni qo'llash kabi jihatlari bilan ahamiyatli. Tizimli bo'shliqlar, ya'ni tashabbuslar yetishmasligi va "tayyor sportchi" sindromiga ham ahamiyat qaratildi. Sport maktablari va federatsiyalar faoliyatidagi asosiy muammo proaktiv emas, reaktiv yondashuv ustunligida. Ya'ni iqtidorlilarni izlash o'rniqa tayyor sportchilar bilan ishlash, xususiy sektor bilan hamkorlikning sustligi, boshqaruv kadrlarining samaradorligi pastligi tizim islohotlarini sekinlashtirmoqda.

Davlatimiz rahbarining murabbiylar ish haqini o'quvchi natijasiga bog'liq, muvaffaqiyatli sport maktablari qo'shimcha rag'batlantirish kabi takliflari aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratildi.

Iqtisodiy va ijtimoiy drayver

Jahonda padel tennis, skvosh kabi yangi sport turlari jadal ommalashmoqda. Bu ikki muhim imkoniyatni ochadi – yoshlarni sportga jalb qilishning zamonaviy formati va xususiy integratsiyalar orqali infratuzilmani rivojlantirish. Biroq bu sohada tashabbuslar yetishmasligi sportni iqtisodiy sektor sifatida rivojlantirish imkoniyatlarini cheklamoqda. Mazkur tizimda ilmiy boshqaruvga o'tish zarurati mavjud. Bugungi kunda sportni rivojlantirish faqat infratuzilma bilan emas, balki ilmiy tahlil va raqamli boshqaruv asosida amalga oshirilishi shart.

Xususan, fiziologik va psixologik tahlillar, individual trening metodikalari, raqamli monitoring tizimlari zamonaviy sport boshqaruvining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Bu esa sportni "evidence-based" (dallilarga asoslangan) boshqaruv bosqichiga olib chiqadi.

Bugungi kunda federatsiyalar bilan hamkorlik hamda iqtidorli o'quvchi va talabalarga individual murabbiy birkiritish tizimining yo'qligi, sportni ilmiy tadqiqotlar bilan bog'lashning yetarli emasligi asosiy kamchiliklar sifatida namoyon bo'lmoqda. Sportda samarali tizim uchun qator muhim yondashuvlar hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Birinchi, uzluksiz vertikal integratsiya – "maktab – federatsiya – universitet" modeli orqali iqtidorli yoshlar uzluksiz rivojlanadi. Ikkinchi, individual rivojlanish dasturlari (IDP) muhim. Har bir sportchi uchun murabbiy, shifokor, ilmiy rahbar ishtirokida ishlab chiqilgan dastur joriy etilishi zarur.

Uchinchi, sport iqtisodiyotini rivojlantirish, xususiy investitsiyalar, klublar va akademiyalar, yangi ish o'rinlari orqali sport iqtisodiy drayver loyihalarga aylanadi.

To'rtinchi, raqamli shaffoflik. Sport natijalari va tizim samaradorligi ochiq reyting va monitoring orqali baholanishi kerak.

Qolaversa, ilm-fan va sport integratsiyasini kuchaytirish – sport, sog'lom turmush bo'yicha ilmiy markazlar, laboratoriyalar tashkil etish orqali natijadorlikni oshirish mumkin.

Selektor yig'ilishi sport sohasida tizimli transformatsiya zarurligini ko'rsatdi. Bu esa har bir rahbar, ayniqsa, ta'lim tizimi vakillaridan yangicha fikrlash, tashabbuskorlik va mas'uliyat talab qiladi. Sog'lom, intizomli va raqobatbardosh avlodni tarbiyalash bu faqat sportning vazifasi emas, balki millat kelajagini belgilovchi maqsad hamdir. Shu ma'noda, bugungi kun talabi bitta: sportni tizim emas, hayotiy zarurat darajasiga ko'tarish.

Natijaga asoslangan yangicha yondashuv

Endilikda ommaviy sport samaradorligi faqat qamrov bilan emas, aholining salomatlik ko'rsatkichlari bilan ham baholanadi. "Salomatlik balansi" modeli tibbiyot, sport, ijtimoiy boshqaruv integratsiyasining amaliy ifodasi. Bu yondashuv sportni "hisobot uchun faoliyat"dan "sog'liqni boshqarish instrumenti"ga aylantiradi.

"Sog'lom hayot volontyorlari" korpusini shakllantirish tashabbusi jamiyatning ichki resurslarini safarbar etishning eng samarali



modeli, desak, ayni haqiqat. Bu sportni kundalik hayotga singdiradi, o'z-o'zini rag'batlantirishni kuchaytiradi, mahalla institutining rolini yangi bosqichga olib chiqadi. Eng muhimi, sport majburiyat emas, ommaviy qadriyatga aylanadi. Chunki sog'lom turmush tarzi ijtimoiy madaniyatdir. Eng namunali mahallalarni sport anjomlari bilan ta'minlash, volontyorlar va mahalla raislarini moddiy rag'batlantirish, trenerlarga yuqori ustamalar belgilash – bularning barchasi natijaga asoslangan boshqaruv tizimining amaliy ko'rinishi hisoblanadi.

Ayniqsa, yurak-qon tomir kasalliklari va diabet kabi xastaliklar kamayishi bilan bevosita bog'langan rag'bat mexanizmi, bu sport siyosatining tibbiy samaradorlik bilan uzviyilgini anglatadi. O'z navbatida, bu qator ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi: sog'liqni saqlash tizimiga tushadigan yuk kamayadi, mehnat unumdorligi oshadi, ijtimoiy farovonlik mustahkamlanadi.

"Krossfit" mashg'ulotlarini ta'lim muassasalarida joriy etish katta infratuzilma talab qilmaydi, ommaviy qamrovni oshiradi, yoshlarning kundalik faolligini kuchaytiradi. Shu ma'noda, uning "Besh tashabbus" tizimiga kiritilishi ayni muddao bo'ladi. Bu eng iqtisodiy va inklyuziv yechimlardan biri hamdir.

Xalqaro indekslar va sport iqtisodiyoti

Jahon amaliyotida sport va jismoniy faollik darajasi bevosita inson kapitali sifatida bilan bog'liq. Xususan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy faollik yetishmasligi har yili millionlab

Endilikda ommaviy sport samaradorligi faqat qamrov bilan emas, aholining salomatlik ko'rsatkichlari bilan ham baholanadi. "Salomatlik balansi" modeli tibbiyot, sport, ijtimoiy boshqaruv integratsiyasining amaliy ifodasi. Bu yondashuv sportni "hisobot uchun faoliyat"dan "sog'liqni boshqarish instrumenti"ga aylantiradi.

erta o'limga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, faol turmush tarzi yurak-qon tomir kasalliklarini 30 – 40 foiz kamaytiradi, 2-toifa diabet xavfini sezilarli darajada pasaytiradi, yulri salomatlikni mustahkamlaydi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tadqiqotlari esa sportga investitsiya qilgan davlatlarda mehnat unumdorligi hamda umr davomiyli yuqori ekanini tasdiqlaydi. Demak, sport uzoq muddatli iqtisodiy investitsiya hamdir.

Bugungi kunda sport siyosatining eng dolzarb vazifalaridan biri uyushmagan yoshlarni qamrab olish. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadi, sportga jalb qilingan yoshlar orasida jinoyatchilik darajasi keskin kamayadi, ijtimoiy moslashuv va liderlik ko'nikmalari oshadi, bandlik va kasbiy yo'nalish aniq shakllanadi. Masalan, Finlyandiya tajribasida maktabdab tashqari sport klublari orqali yoshlarning 70 foizdan ko'prog'i muntazam jismoniy faollikka jalb qilingan. Bu modelni O'zbekiston sharoitida ham mahalla hamda ta'lim tizimi integratsiyasi orqali samarali joriy etilishi maqsadga muvofiq, albatta.

Ta'kidlash joizki, sport iqtisodiyoti bugungi kunda global miqyosda trillionlab dollar aylanmaga ega bo'lgan sektor hisoblanadi. Professional xizmatlar ko'rsatuvchi kompaniyalardan biri – "PWC" tahillarga ko'ra, sport industriyasi turizm, xizmat ko'rsatish va

Sog'liqni saqlash tizimi bilan integratsiya, ya'ni shifokor tavsiyasi asosida jismoniy faollik dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Zero, ommaviy sportni rivojlantirishning eng samarali yo'li alohida soha emas, balki jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylantirishdan iborat. Shu ma'noda, keksalar, yoshlar va barcha qatlarni qamrab olgan yaxlit tizim yaratilsa, sport nafaqat sog'liq, balki milliy taraqqiyotning kuchli drayveriga aylanadi.

infratuzilma rivojiga kuchli turtki beradi, har bir sportga kiritilgan investitsiya ko'p barobar iqtisodiy naf keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, sport turizmini rivojlantirish – O'zbekiston uchun katta imkoniyat. Tog'li hududlar, tarixiy maskanlar va iqlim sharoiti bu borada katta salohiyatga ega. Sportning yana bir muhim jihati, millat genofondini saqlash hamda rivojlantirishdagi rolidir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, jismoniy faollik reproduktiv salomatlikni yaxshilaydi, sog'lom ota-onadan sog'lom farzand tug'ilish ehtimoli yuqori bo'ladi, epigenetik omillar orqali sog'lom turmush tarzi keyingi avlodlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Dunyoning zamonaviy tibbiyot konsepsiyasida davolashga emas, balki profilaktikaga asosiy urg'u beriladi. Harvard tibbiyot maktabi tadqiqotlariga ko'ra, muntazam jismoniy faollik dori-darmonlarga ehtiyojni keskin kamaytiradi, sog'liqni saqlash xarajatlarini optimallashtiradi, surunkali kasalliklarning oldini oladi. Bu Davlat byudjetiga tushadigan yukni kamaytirib, resurslarni boshqa strategik sohalarga yo'naltirish imkonini beradi.

Yana bir muhim tahlil – sport bilan shug'ullangan ayollar orasida depressiya darajasi past, o'z uyda yashash kam, farzand tarbiyasi samaraliroq bo'ladi. Bu esa ajralmas sonini kamaytirishda ham bilvosita muhim rol o'ynaydi.

Inklyuziv jamiyat va hayot tarzi falsafasi

Adaptiv sport – nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan jismoniy faoliyat turi. Xalqaro paraliimpiya qo'mitasi – dunyo bo'yicha nogironligi bo'lgan sportchilar uchun paraliimpiya sportini rivojlantiruvchi va boshqaruvchi xalqaro tashkilot tajribasiga ko'ra, adaptiv sport turlari ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi, psixologik holatni yaxshilab, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi faolligini oshiradi. Bu yo'nalish inklyuziv jamiyat qurishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Sport milliy taraqqiyot strategiyasining eng muhim ustuniga aylanishi lozim. Mazkur masalalarini chuqurroq anglash uchun ommaviy sportni rivojlantirish borasida ilg'or tajribaga ega davlatlar misolida tahlil qilish muhim. Xususan, Yaponiya hamda Shimoliy Yevropa mamlakatlari – Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiya tajribasi bu borada alohida e'tiborga loyiq.

Rivojlangan mamlakatlarda ommaviy sport alohida soha emas, balki kundalik hayotning ajralmas qismi sifatida shakllangan. Masalan, Norvegiyada aholining qariyb 70 foizi muntazam jismoniy faollikka yashaydi. Bunga sport infratuzilmasining ommaviy hamda bepul yoki arzonligi, mahalliy klublar va ko'ngillar tizimining rivojlanganligi, sportning "natija" emas, balki "sog'lom hayot" mezonini sifatida targ'ib qilinishi muhim omil bo'lmoqda.

Yaponiya tajribasidan ma'lumki, keksalar faolligi – uzoq umr garovi. Dunyoda eng uzoq umr ko'rish ko'rsatkichlariga ega mazkur davlatda keksalarning jismoniy faolligi muhim omil hisoblanadi. Shimoliy Yevropa modeli ijtimoiy davlat va sog'lom jamiyat uyg'unligiga asoslangan. Finlyandiya hamda Shvetsiyada keksalarni sportga jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Demak, xalqaro tajribalar asosida qator ilmiy-amaliy xulosalarni ilgari surish mumkin. Ya'ni, avvalo, sportni hayot tarzi sifatida shakllantirish zarur. Buni targ'ibot emas, balki madaniyat masalasi, desak, ayni haqiqat. Shuningdek, keksalar sportini alohida yo'nalish sifatida rivojlantirish, "Faol keksalik" konsepsiyasini milliy model asosida joriy etish lozim. Bunda mahalla asosiy platforma vazifasini bajarishi kerak. Mahallalarda oddiy, lekin muntazam mashg'ulot tizimini yaratish ham muhim ahamiyatga ega.

Sog'liqni saqlash tizimi bilan integratsiya, ya'ni shifokor tavsiyasi asosida jismoniy faollik dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Zero, ommaviy sportni rivojlantirishning eng samarali yo'li alohida soha emas, balki jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylantirishdan iborat. Shu ma'noda, keksalar, yoshlar va barcha qatlarni qamrab olgan yaxlit tizim yaratilsa, sport nafaqat sog'liq, balki milliy taraqqiyotning kuchli drayveriga aylanadi.

Sherzod MUSTAFOQULOV, Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor.

2026-yil 1-maydan boshlab askarlarni kasbga o'qitishga jalb etilgan pedagoglarga mashg'ulotlarni o'tkazganlik uchun soatbay asosida ish haqi to'lanadi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-1242. 25 499 nusxada bosildi. Hajmi – 2 ta bob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyrga kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Aliqulov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 21.30 Topshirildi – 00.15 **1 2 3 4 5 6**